

Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– avgust holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **827 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'ssatmayotgan korxonalarning ulushi **0,8 f.p. oshgan.**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **980 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-avgust oyida Xorazm viloyatida 1544 taga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 285 taga ko'pdir.


Shuningdek, faoliyati tuga-tilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 32,0 % ga kamaygan hamda ular ning soni 564 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'ssatayotgan korxona va tashkilotlar soni 827 ta (6,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiyligi soni 14501 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'ssatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Urganch shahrida (24,0 %), Urganch (10,4%), Xiva (9,6 %) tumanlarida va Xiva shahrida (9,1 %) kuzatilmoqda.

Tumanlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




***Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi***

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Xorazm viloyati	15262	100	14501	100
Urganch sh.	3778	24,7	3473	24,0
Xiva sh.	1370	9,0	1319	9,1
tumanlar:				
Bog'ot	753	4,9	733	5,1
Gurlan	901	5,9	866	6,0
Qo'shko'pir	879	5,8	852	5,9
Urganch	1553	10,2	1508	10,4
Xazorasp	1064	7,0	1033	7,1
Xonqa	1137	7,4	1109	7,6
Xiva	1505	9,8	1396	9,6
Shovot	747	4,9	702	4,8
Yangiariq	1001	6,6	960	6,6
Yangibozor	574	3,8	550	3,8




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 95,0 % ni, shu bilan birga jami korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 5,0 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich yil boshiga nisbatan 0,8 % o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 24,0 % savdoda, 15,9 % sanoatda, 10,1 % qurulishda, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligidagi, 5,7 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 3,9 % tashish va saqlash, 2,2 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa va 29,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'gri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



2018 yil yanvar-avgust holatiga 1544 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 22,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Urganch shahrida (380 ta), Urganch (189 ta), Xiva shahrida (131 ta) va Xonqa tumanlarida (126 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (60 ta), Gurlan (76 ta) hamda Bog'ot (81 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (376 ta), sanoatda (271 ta), qurilishda (158 ta) va qishloq va o'rmon xo'jaligidagi (158 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (18 ta), sog'lioni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (32 ta) hamda tashish va saqlashda (51 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoxda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Axborot va aloqa-18



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish-32



Tashish va saqlash-51



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar-123



Qishloq va o'rmon xo'jaligi-158



Qurilish-158



Sanoat-271



Savdo-376





Boshqa turlar-357

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017-yil yanvar-avgust holatiga.	2018-yil yanvar-avgust holatiga.
Jami:	1259	1544
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	146	158
Sanoat	311	271
Qurilish	118	158
Savdo	276	376
Tashish va saqlash	53	51
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	105	123
Axborot va aloqa	22	18
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	38	32
Boshqa turlari	190	357

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)


2018 yil 1 sentyabr holatiga 11589 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`satayotgan bo`lib, shundan xususiy korxonalar – 4063 ta, oilaviy korxonalar – 1085 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 6141 ta va boshqalar 300 tani tashkil etadi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 59 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 12taga yoki 25,5 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 48 tasi qo'shma korxonalar, 11 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Urganch shahar 14 ta (23,7 %), Shovot tumani 12 ta (20,3 %) va Xiva shahar 6 ta (10,1 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xonqa 1 ta (1,6 %), Yangibozor 1 ta (1,6 %), Xazorasp 2 ta (3,3 %) va Gurlan 2 ta (3,3 %) tumanlar hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur tumanlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining tumanlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 39 ta (66,1 %), savdoda 9 ta (15,3 %) , yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda esa 3 ta (5,1 %) va qurilishda 3 ta (5,1 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 ta (1,7 %), tashish va saqlashda 1 ta (1,7 %) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 1 ta (1,7 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'gri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, tashish va saqlash hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'gri keladi. Shuningdek axborot va aloqa hamda faoliyatning boshqa turlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar mavjud emas.


Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-avgust oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarning soni 11 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3 taga ko`paygan yoki 37,5 % o'sgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Turkiya Respublikasi – 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-2 ta va 5 ta boshqa mamlakatlardan ishtirokida yangi korxonalar royxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-avgust holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 5 ta, savdoda 2 ta, qurilishda 1 ta hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar 1 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimzda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11515 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 5,0 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2806 tasi (24,4 %) Urganch shahriga, 1252 tasi (10,9 %) Urganch, 1204 tasi (10,5 %) Xiva tumanlariga hamda 1201 tasi (10,4 %) Xiva shahri hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11515 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3461 tasi (30,1 %) – savdoda, 2284 tasi (19,8 %) - sanoatda, 1458 tasi (12,7 %) - qurilishda, 1096 tasi (9,5 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 812 tasi (7,1 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 558 tasi (4,8 %) - tashish va saqlashda, 254 tasi (2,2 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 199 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasida, shuningdek 1393 tasi (12,1 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust holatiga 1296 dan oshiq kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 105 ta korxonaga o'sgan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Urganch shahrida (337 ta), Urganch tumanida (165 ta), Xiva shahrida (106 ta) tashkil etilgan. Eng kam Yangibozor (43 ta), Yangiariq (66 ta) hamda Gurlan (70 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (375 ta), sanoatda (271 ta), qurilishda (158 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (157 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa - axborot va aloqa sohasida (18 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (31 ta), tashish va saqlashda (51 ta) hamda yashash va ovqatlanish (122 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 1132 tani tashkil etib, ulardan 1085 tasi yoki 95,8 % faoliyat yuritadi. Bu ko`rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro`yhatidan o`tganlarning hamda faoliyat ko`rsatayotganlarning umumiy soni o`rtacha **39,3** % ga oshganligini ta`kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 27,6 % yoki 300 tasi sanoat, 27,4 % yoki 297 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 21,2 % yoki 230 tasi savdo, 10,0 % yoki 109 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,7 % yoki 18 tasi qurilish, 1,0 % yoki 11 tasi axborot va aloqa, 1,0 % yoki 11 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,6 % yoki 7 tasi tashish va saqlash hamda 9,4 % yoki 102 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Xorazm viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Nashr uchun mas'ul: D.Kurbanova
(0362) 224-65-11

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan